

M.Yusufning "Samarqand" she'ridan keltirilgan ushbu parchada ota o'z farzandidan xiyonatni kutmagani, fojining asosiy sababi o'zi ilm-fan bilan mashg'ul bo'lib, farzand tarbiyasida e'tiborsizlikka yo'l qo'yganiga ishora qilinadi.

Endi shu holatni O.Yoqubov romanida Abdulatif tilidan aytilgan quyidagi jumalarga kuzatamiz:

"Padari bo'lib bir marotaba bag'riga bosmadi, o'g'lim deb boshini silamadi, bor mehr-saxovatini, bor shirin so'zini farzandi shahzoda Abdulazizga baxsh etdi, uni suydi, bag'riga bosdi". [2]

M.Shayxzoda tragediyasida ayni shu holat Ulug'bekning tilidan bayon qilingan:

*Men u yovuzni ko'kragimda parvarish etdim.
O'g'lim dedim, nuqsonlarni undan berkitdim.
Yaxshi so'zning urug'idan yaxshilik kutdim.
Tarbiyada talabchanlik shartin unutdim.
Xo'p mehribon ota bo'ldim, shavqatli sulton. [3]*

Endi ushbu parchalarning o'xshash va farqli jihatlariga e'tibor qarataylik. Uchta parchada ham umumiy nuqta bu – Ulug'bekning farzand tarbiyasida biroz e'tiborsizligi yoki haddan ziyod ishonuvchanligi. Bu esa farzandining o'z otasi haqida salbiy fikrda bo'lishiga olib kelgan.

*Bilmay qoldim o'shanda chog'im
Yulduzlarda ekan nigohim. [1]*
Yoki

Tarbiyada talabchanlik shartin unutdim. [3]

"Samarqand" she'ri va "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida ota iztiroblari Ulug'bek tilidan bayon qilinsa, "Ulug'bek xazinasi" romanida esa Abdulatif o'y-xayollari orqali bayon qilinadi: *"Bu kun ilm ahliga qayrub solgan mutaassib johillar erta bir kun uning o'zini chohga itarmasmu? Men shunga jonim achiganidan sening taqdiringni o'ylagan qiblagohing bo'lganimdan buni aytmog'ni lozim ko'raman". [2]*

"Oxir-oqibat barcha shoh, taxt sohiblariday saltanatni deb o'z pushti kamaridan bo'lgan farzandi bilan toj-u taxtni talashubdur-da, degan nom qoldirmoqdan qo'rqamen Mavlono Ali!" [2]

Bu jumalardan ayonki, ota o'ziga emas, farzandiga, uni tarix zarvaralarida nafrat bilan tilga olinishiga iztirob chekadi. Qanchalar ayanchli hol: ota o'z farzandiga qayg'urmoqda, farzand esa otasini dushman deb biladi.

Dramadagi bu holat quyidagicha talqin qilinadi. Drama qahramonlaridan biri Sakkokiy deydi:

Mamlakatda birinchi mergan Shahriyorning o'zlari-ya Ammo dushmanning ko'kragiga qo'llari bormas. [3]

Yana Abdurazzoq Samarqandiy shunday deydi:

Dushman o'z o'glida, illat shunda-da. [3]

Shoh sifatida qudrati va sarkarda sifatida iste'dodi tufayli qanchadan qancha dushmanlarni yer tishlatgan Ulug'bekday zot o'z farzandiga dushman ko'zi bilan qaray olmasdi. Chunki farzandi qanchalik yomon bo'lmasin, u Ulug'bekning zurriyoti ekanligi otani tushkun holga solgan edi.

"Men shoh emas axir otaman". [1]

"Men senga jonim achiganidan, sening taqdiringni o'ylagan qiblagohing bo'lganimdan buni senga aytishni lozim ko'raman?" [2]

"Dushman o'z o'g'li-da, illat shunda-da". [3]

Ushbu jumalarda ham otaning iztirobi yaqqol ifodasini topgan.

Har uch adib ham o'z asarlarida Ulug'bekning shoh emas, munajjim emas, balki ota sifatidagi ruhiy holatiga alohida urg'u bergan, uning iztiroblarini turlicha pafosda yoritgan. Zero, tarixiy asarlarda voqealar bayoni emas, balki his-tuyg'u ifodasi birlamchi o'rinda turadi. Bunday asarlar orqali biz tarixiy voqealar bilan birga qahramonlar ruhiyatini his qilamiz. Ta'kidlash kerakki, his-tuyg'u ifodasi lirika va dramada nasrga nisbatan ancha kuchli bo'lib, lirika boshqa turdagi asarlardan qahramon ruhiy holatini, ichki kechinmalarini to'la-to'kis aks ettirishi bilan ajralib turadi. Bu holatga yuqoridagi qiyoslarda ham guvoh bo'ldik.

Qiyoslashdan maqsad adabiy janr yoki ijodkorlar mahoratini ko'rsatish emas, balki ijodkorlarning ruhan o'zaro yaqinligini ta'kidlashdir.

9-sinf adabiyot darsligida O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanidan parchalar berilgan. Shu parchalarda Ulug'bekning ota sifatidagi qiyofasi, ruhiy holatlari berilgan o'rinlar ko'p uchraydi. O'quvchilarga mazkur asar talqini mavzusida dars o'tayotganimizda, roman yanada ta'sirli va tushunarli bo'lishi uchun ana shu parchalardan foydalansak, ko'zlagan maqsadga erishgan bo'lamiz. Chunki har bir adabiyot darsidan maqsad o'quvchilarni tarbiyaviy tomondan kamol toptirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Yusuf. Bevafo ko'p ekan... – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
2. O. Yoqubov. Ulug'bek xazinasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
3. M. Shayxzoda. Mirzo Ulug'bek tragediyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.

Arofotoy MUYDINOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

MUVASHSHAHCHILIKDA AN'ANA VA INDIVIDUALLIK

O'zbek milliy uyg'onish davri adabiyoti vakillari yaratgan muvashshahlar adabiyotshunoslikda deyarli tadqiq etilmagan. Shu bois ularni o'rganish o'sha davr shoirlari adabiy-estetik olamini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Maqsud Shayxzoda, Aziz Qayumov, Sharif Yusupov, Qo'ldosh Pardayev singari shoir va olimlarning bu mavzuga oid tadqiqotlarida muvashshahning o'ziga xos xususiyatlari

yoritilgan. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida Feruz, Kamiy, Miskin, Haziniy, Muqimiy, Furqat kabi ulug' shoirlar muvashshahchilikda shuhrat qozonishgan.

Muvashshah she'riy san'ati arabcha "tashveh" so'zidan olingan bo'lib, "belni bog'lamoq", "bezamoq", "ziynatlamog'" ma'nolarini ifodalaydi. Muvashshah janr emas, she'riy san'atlardan biri. Shu bois g'azal, muxammas, murabba', musam-

man, mustahzod, masnaviy, qit'a, ruboiy, fard kabi janrlarda bu san'atni qo'llash mumkin. Muvashshahning har bir misrasi, bayti yoxud bandining bosh harflaridan biror kishining ismi kelib chiqadi. Ba'zan ism misralar tarkibidagi so'zlar orasiga yashiringan bo'ladi. Bunday holda muvashshah muammo usulida yechiladi.

Muvashshahning kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Chunonchi, rus sharqshunos olimi I.Y. Krachkovskiyning yozishicha, ilk muvashshah, uning shakl-shamoyili va muayyan tartibda tuzilishi borasidagi fikrlar X asrda yashab ijod qilgan shoir Muqaddam ibn Mu'afa al-Kabriy qalamiga mansub¹.

Muvashshah adabiyotlarda *tavshih san'ati* deb ham ataladi. XV asrda yashab ijod qilgan olim Atoulloh Husayniy o'zining "Ba'doyi'-us sanoyi" asarida bu san'atga quyidagicha ta'rif beradi: "Tavshih ajam shuaro si nazdida andin iboratturkim, shoir misra yoki baytlarning boshida yo alarning o'rtaida bir necha harf yoki bir necha so'z keltirurkim, ul harf yoki so'zlarni jam qilinsa, bir ism yo bir laqab yo bir misra yo bir bayt bo'lur yoki anga o'xshash bir nima hosil bo'lur va bu san'atni o'z ichiga olgan she'rni muvashshah derlar..."²

Olim shoir tavshih san'atiga batafsil to'xtalib, uning barcha turlariga misollar keltiradi va tavshihning qasidada qit'a shaklida qo'llanishini ta'kidlaydi. Shuningdek, olim *tavshih* so'zining lug'aviy ma'nosini ham izohlab, shunday asoslaydi: "Tavshih lug'atta vishoh, ya'ni bo'yunbog'ni birovning bo'yniga ilmak-tur. She'rg'a harf yoki so'zlarni kiritmak anga o'xshag'ani uchun bu ma'noda anga tavshih deb nom qo'yupturlar"³.

Muvashshah-g'azallar xususida akademik Aziz Qayumov quyidagicha fikr bildirgan: "Muvashshah-g'azalda keltirilgan sifatlashlar, shoirona tasvirlar ko'proq Sharq adabiyotiga xos an'anaviy xarakterga ega. Muvashshah shoir mahoratining bir namoyishi"⁴.

XV asr she'riyatida muvashshahning misralar ichida qizil siyoh bilan ajratib yozilgan so'zlarni jamlanganda bir yoki bir necha bayt she'r paydo bo'ladigan turidan keng foydalanilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida esa ko'proq har bir misra, bayt yoxud bandning boshlanish harflaridan nom kelib chiqadigan turidan foydalanilgan. Bu davrga kelib muvashshahchilik an'anasi shu darajada ommalashganki, hatto shoirning iste'dodi muvashshahchilikdagi mahorati bilan baholangan manbalarda ta'kidlanadi⁵.

Bu davr adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan, Qo'qon adabiy muhitining peshqadam vakillaridan biri Ziyovuddinxon Kattaxoja o'g'li Haziniy Xo'qandiy ijodini o'rgan-gan adabiyotshunos O. Jo'raboyev shoirning davr an'anasiga ko'ra muvashshahchilikda ham barakali ijod qilganini, yigirma beshtacha she'rida muvashshah san'ati qo'llanganini, shu-lardan to'rttasi murabba', bittasi muxammasda, qolgani esa g'azallarda aks etganini ta'kidlaydi⁶.

Haziniy muvashshahlarini nafaqat g'azal va muxam-maslarda, balki murabba'larda ham qo'llagan. Professor Sh.Yusupov ishq haqiqiyga bag'ishlangan g'azalni mu-vashshah tarzida yaratilganiga mumtoz shoirlar orasida faqat Haziniy to'ra merosida duch kelganini yozadi⁷. Shoirning ishq

ilohiy kuylangan "firoq" radifli g'azali Qo'ldoshxon nomiga mu-vashshah qilingan. G'azal quyidagi maqta' bilan yakunlanadi:

*Naqdi umringni dilingga olgucha toatda bo'l,
Ey Haziniy, aytasan zikru sanolarni firoq.*

Shuningdek, muvashshahlar ko'pincha erkaklar nomi-ga bog'langan, juda kam shoirlarga ayollar nomlariga muvashshah bog'lagan. Haziniy to'ra ijodida To'faxon, Ashuroyxon, Oyshaxon, Nazirxon, Hamrahxon, To'tixon-To'ti kabi bir necha ayol nomlariga muvashshah bog'laganligini ku-zatish mumkin. Bular esa Haziniy muvashshahlarining o'ziga xosligini ta'minlangan.

Xiva adabiy muhiti namoyandalaridan Muhammad Rahimxon Feruz ham, davr an'anasiga muvofiq mu-vashshah-g'azallarining o'ziga xos namunalarini yaratgan. Feruz ijodida ham ayollar nomiga muvashshah-g'azallar bog'laganini ko'rish mumkin. Jumladan, shoirning:

*Furqating soldi dilu jon ichra o't,
Kufri zulfiy dinu iymon ichra o't, –*

matla'si bilan boshlanuvchi g'azali Fanojon ismiga mu-vashshah qilingan. Xorazmda ayollar ismiga "jon" qo'shim-chasi qo'shib aytilishi hisobga olinsa, ushbu muvashshah – g'azal ayol nomiga yozilgan bo'lishi haqiqatga yaqindir⁸.

Toshkent adabiy muhiti vakillaridan Mulla Qo'shoq Miskin ijodida ham g'azal janridagi muvashshahlar ko'p uchraydi. Shoirning Yusufxon, Xolmuhammadxon, Muhammadjon, Ismoil maxzum, Ziyovuddinxon, Alixon, Omixon singari za-mondoshlari nomiga bitgan muvashshah-g'azallari ma'lum. Nomlari zikr etilgan kishilar ismiga Miskin bilan bir davrda yashab ijod qilgan yana boshqa shoirlar ham muvashshah bog'laganlar. Kamiyning Xolmuhammadxon, Alixon, Mirzo Shoshiyning Alixon, Xislatning Yusufxon, Alixon nomlari-ga muvashshah bog'laganlaridan ko'rinadiki, ismlari mu-vashshah qilingan kishilar Miskin va uning ijodiy davrasi uchun yaqin shaxslar bo'lishgan. Miskin va Haziniy o'rtasidagi ijodiy muloqot Haziniyning ko'p shoirlar muxammas bog'la-gan mashhur "Yo hayot an-nabiy" radifli g'azalining ohangi va radifini saqlagan holda yozgan muxammasida ham ko'rinadi. Miskin ijodidagi:

*Husningni, ey parivash, e'lon etaymu etmay?
Yo dil uyida saqlab, pinhon etaymu etmay? –*

bayti bilan boshlanuvchi g'azal Kamiyning Husaynbek ismiga muvashshah qilingan "Husningni, ey parivash, e'lon etaymu etmay?" misrasi bilan boshlanuvchi g'azaliga tazmin qilingan. E'tiborlisi, Miskinning bu g'azali Xolmuhammadxon ismiga muvashshah ham. Demak, Miskin nafaqat g'azalga tazmin bog'lagan, balki asos bo'lgan g'azaldagi badiiy unsumni ham saqlagan⁹.

Umuman, Milliy uyg'onish davri adabiyoti vakillari ijodida-gi muvashshahlar tadqiqi shoirlarning yaqin do'stlari kim-lar bo'lgani, shuningdek, bu davr ijtimoiy va adabiy hayoti, shoirning adabiy davrasi, ijodiy hamkorligi kabi ko'plab masa-lalarga oydinlik kiritishi jihatidan ahamiyatlidir.

1. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov, G'oziyev A. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. – Toshkent: "Ijod" nashriyot uyi, 2006. 123-bet.

2. Atoulloh Husayniy. *Badoyi'-u-s-sanoyi'*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. 85-bet.

3. O'sha asar. 87-bet.

4. Qayumov A. *She'riyat jilolari*. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. 45-bet.

5. Shayxzoda M. *Asarlar. Olti tomlik. Beshinchi tom*. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1972. 91–92-betlar.

6. Jo'raboyev O. *Haziniy to'ra*. – Toshkent: Fan, 2007. 86-bet.

7. Yusupov Sh. *Tarix va adab bo'stoni*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. 147-bet.

8. Maxammadiyeva Y. *Feruzning badiiy mahorati*. Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. diss. – Toshkent: 2021. 25-bet.

9. Nuriddinov Sh.B. *Mulla Qo'shoq Miskin hayoti va uning adabiy merosi*. Filol. fan. nom... dis. – Toshkent: 2011. 79–80-betlar.